

UO'K (UDK, UDK): 811.581.11

**HOZIRGI XITOY TILIDA TEMPORATIVLARNI O'ZBEK TILIGA  
TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI  
(IJTIMOIY-SIYOSIY MATNLAR MISOLIDA)**



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14262187>

**Shamsiddinova Zebo Fazliddinovna**  
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,  
Sharq tillari kafedrasи o'qituvchisi  
[zeboxon\\_shams@mail.ru](mailto:zeboxon_shams@mail.ru)

*Annotation. Maqola hozirgi xitoy tilida ijtimoiy-siyosiy matnlarda uchraydigan temparativlarning qo'llanilish xususiyatlari hamda ularni o'zbek tiliga tarjima qilish tahliliga bag'ishlangan. Xitoy tili og'zaki nutqqa xos zamon kategoriyasining yozma nutqda berilishi xususiyatlari hamda ularni o'zbek tilida aks etishi ijtimoiy-siyosiy matnlar asosida yoritib berilgan.*

*Kalit so'zlar: tempurativer, vaqt kategoriyasi, vaqt faktori, yordamchi so'zlar, ko'makchi, bog'lovchi, payt ravishi, turg'un konstruksiyalar, til vositalari, grammatik kategoriya*

**ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА ТЕМПОРАТИВ С СОВРЕМЕННОГО  
КИТАЙСКОГО НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК (НА ПРИМЕРЕ  
ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ)**

*Аннотация. Статья посвящена анализу особенностей употребления темпоративов, встречающихся в общественно-политических текстах на современном китайском языке и их переводе на узбекский язык. На основе общественно-политических текстов выделены характеристики категории времени, характерные для китайской устной речи в письменной речи, и их отражение в узбекском языке.*

*Ключевые слова: темпоративы, временная категория, временной фактор, вспомогательные слова, конструкции, средства языка, грамматическая категория.*

## FEATURES OF TRANSLATING TEMPORATIVES FROM MODERN CHINESE INTO UZBEK LANGUAGE (BASED ON THE EXAMPLE OF SOCIAL AND POLITICAL TEXTS)

**Abstract.** The article is devoted to the analysis of the features of the use of temporatives found in socio-political texts in the current Chinese language and their translation into Uzbek. The characteristics of the tense category characteristic of the Chinese oral speech in the written speech and their reflection in the Uzbek language are highlighted on the basis of socio-political texts.

**Key words:** temporals, time category, time factor, auxiliary words, auxiliary, conjunction, tense, static constructions, language tools, grammatical category

Temporallik “insonning so‘zlovchi nutqi yoki boshqa murojaat nuqtasi bilan bog‘liq vaziyatlar va ularning elementlari vaqtini idrok etishi va anglashi”da o‘z aksini topadi [2, 264].

Temporallikning asosiy xarakteristikasi bu – hozirgi zamon, o‘tgan zamon va kelasi zamon. Hozirgi zamonning asosiy mazmuni so‘zlovchi nutqi payti bilan bir vaqtda tutashuvchi vaqt, o‘tgan zamon so‘zlovchi nutqiga qadar bo‘lgan payt, kelasi zamonda esa so‘zlovchi nutqidan keyingi vaqt nazarda tutiladi.

Hozirgi xitoy tilida temporallikni ifodalovchi temporativlarni o‘zbek tiliga ijtimoiy-siyosiy matnlar misolida tarjima qilish o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Zero, xitoy tilida og‘zaki nutqqa xos grammatik kategoriylar, yozma nutqda boshqacha uslubda, jumladan turli payt ravishlari, yordamchi so‘zlar orqali namoyon bo‘ladi.

Ish-harakat, holatning sodir bo‘lganligi yoki bo‘lmaganligini ko‘rsatish uchun 曾 céng, 曾经 céngjīng, 已 yǐ, 已经 yǐjīng, 都 dōu ravishlari qo‘llaniladi. Bu guruh ravishlari o‘tgan zamondagi vaqtini, yoki bo‘lmasa o‘tib ketgan kechmishni, yoki o‘tgan zamonda tugallangan ish-harakatni ifodalaydi. O‘zbek tilioga tarjima jarayonida “ilgari”, “allaqachon” deb tarjima qilinadi. Ba’zan, kontekstdan kelib chiqib, uni yozma nutq uslubiga muvofiq tarjima qilish maqsadga muvofiq.

农业在国民经济中已无足轻重

Nóngyè zài guómín jīngjì zhōng yǐ wú zú qīngzhòng

Qishloq xo‘jaligi milliy iqtisodiyotda unchalik ahamiyatga ega bo‘lmay qoldi [1, 22]

Mazkur “已经” yǐjīng – “allaqachon” so‘zining qadimiyroq shakli “已” yǐ dir.

已 yǐ va 已经 yǐjīng ravishlarining funksiyasi bir xil bo‘lib o‘zaro o‘rin almashib qo‘llash mumkin. 已 yǐ asosan yozma nutqqa xos, 已经 yǐjīng esa putunxuada

so‘zlashdan oldin yoki biror muayyan bir vaqtdan oldin ish-harakat, vaziyat sodir bo‘lganini ifodalaydi. So‘zlangunga qadar yoki biror muayyan bir vaqtga qadar uning natija holati ilgarigiday mavjud bo‘ladi. 已经 *yǐjīng* ravishidan keyin inkor ravishi qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, yana kelajakni ifodalashda ham ishlatilishi mumkin.

1936 年后，柬埔寨曾被法国，日本占领

*1936 nián hòu, jiānpǔzhài céng bèi fàguó, rìběn zhànling*

*1936 yildan so‘ng Kambodja Fransiya va Yaponiya tomonidan bosib olingan* [1, 23]

曾 *céng* ravishi o‘zbek tiliga “*qachonlardir, bir zamonlar*” ko‘rinishida tarjima qilinib, faqat yozma nutqda qo‘llaniladi. Yuqorida berilgan gapda mazkur ravish o‘zbek tiliga tarjima qilinmasdan -*gan* o‘tgan zamon fe’l shakli orqali berilgan. Ushbu ravish biror ish-harakatning o‘tmishda sodir bo‘lganligini bildirib, og‘zaki nutqda *过 guò* suffiksining funksiyasini bajaradi.

将 *jiāng* ravishi ishtirok etgan gaplar o‘zbek tiliga kelasi zamon fe’l shakllari orqali tarjima qilinadi hamda quyidagi ma’nolarda ifodalaydi:

- 1) Ravish vazifasida yaqin orada sodir bo‘lajak voqeа-hodisani ifodalashda qo‘llaniladi;
- 2) Biror-bir paytning yaqinlashuvini ifodalaydi;
- 3) Belgilangan paytda sodir bo‘ladigan voqeani ifodalaydi;
- 4) Kelasi zamon belgisi sifatida ishlatiladi;
- 5) Yordamchi sifatida vositasiz to‘ldiruvchi inversiyasi, ya’ni fe’ldan oldingi o‘ringa chiqib olishi mumkin. Masalan, 将 *jiāng* +ot+fe’l= “kelajakda biron narsa qilmoq”.

我方将于近期内函告我方的决定

*Wǒ fāng jiāng yú jìngqí néi hángào wǒ fāng de juédìng*

*Qarorimiz haqida sizga yaqin orada xabar beramiz* [7, 105]

巴西今年将进口 1500000 袋咖啡

*Bāxī jīnnián jiāng jìnkǒu 1500000 dài kāfei*

*Bu yil Braziliya 1,5 million qop kofeni import qiladi*

Guvohi bo‘lganimizdek, mazkur ravish o‘zbek tiliga kelasi zamonning -*a(y)* fe’l shakli orqali tarjima qilinmoqda. Uning xitoy tilidagi o‘g‘zaki nutqqa xos shakli 要 *yào* modal fe’li orqali namoyon bo‘ladi.

即 *jí* ravishi o‘zbek tiliga “*hozir*”, “*shu zahotiyoyq*”, “*darrov*” kabi ravishlar orqali tarjima qilinadi: Masalan:

两国就建立外交关系，派驻外交代表等问题达成协议，并互派外交代表后，外交关系即正式建立

*Liǎng guó jiù jiànli wàijiāo guānxì, pàizhù wàijiāo dàibiǎo děng wèntí dáchéng xiéyi, bìng hù pài wàijiāo dàibiǎo hòu, wàijiāo guānxì jí zhèngshì jiànli*

*Ikki mamlakat o‘rtasida - diplomatik vakillar tayinlanishi va boshqa masalalarda kelishuvga erishilishi hamda o‘zaro diplomatik vakillar almashinuvidan keyin, darhol (darrov) diplomatik munosabatlar rasmiy o‘rnatalidi [1, 230]*

即 jí morfemasi ikki bo‘g‘inli 立即 *lijí* “hoziroq, darrov” ma’nosiga o‘xhash so‘zlar tarkibiga kiradi. Og‘zaki nutqda esa 立刻 *likè* va 马上 *mǎshàng* ravishlarining ma’nosni bilan bir xil.

在 *zài* ravishi ham 正在 *zhèngzài* kabi ish-harakatning jarayondaligini ko‘rsatib, ish-harakat jarayonini ifodalovchi 呢 *ne* yuklamasi bilan hamda ish-harakatning davomiyligini ifodalovchi 着 *zhe* yuklamasi bilan birga qo‘llanilishi ham mumkin. Yozma uslubda 在 *zài* ravishi 在...中，在...过程中 konstruksiya tarkibida kelib, o‘zbek tiliga “jarayonida, ayni damda, ...da” kabi tarjima qilinadi. Masalan:

北京天桥民俗园 正在筹建中

*Běijīng tiānqiáo mínsú yuán zhèngzài chóujian zhōng*  
*Pekinda “Tianqiao” folklor bog‘i qurilish jarayonida[6]*

在活动中青年们进行了非常精彩的表演，并及朗诵了纳瓦伊的精美作品

*Zài huódòng zhōng qīngniánmen jìnxíngle fēicháng jīngcǎi de biǎoyǎn, bìng jí lǎngsòngle nà wǎ yī de jīngměi zuòpǐn*

*Tadbir jarayonida yoshlar ajoyib chiqishlar qilishdi hamda Navoiyning nafis asarlarini qiroat qildilar*

在进行斗争过程中... *Zài jìnxíng dòuzhēng guòchéng zhōng... - jang jarayonida...*

在进行合作的过程中... *Zài jìnxíng hézuò de guòchéng zhōng... – hamkorlik jarayonida ...*

在会议中共同发表公报... *Zài huìyì zhōng gòngtóng fābiǎo gōngbào... - uchrashuv jarayonida qo‘shma kommyunike nashr etish...*

迄今 *qìjīn* ravishi o‘zbek tiliga “hali hanuz, hamon, haligacha” ravishlari hamda fe’lga hozirgi davomiylik zamonini yasovchi -moqda fe’l shakli orqali tarjima qilinadi. Masalan:

迄今科索沃局势依然紧张，民族仇视不减，冲突不断

*Qijīn kēsuōwò júshì yīrán jǐnzhāng, mínzú chóushì bù jiǎn, chōngtú bùduàn*

*Kosovodagi vaziyat hamon keskinligicha qolmoqda, milliy ziddiyatlar va mojarolar davom etmoqda [1,418]*

则 zé bog‘lovchisi gapda qo‘llanilganida, o‘zbek tiliga “qachonki..., agarda..., faqat ...bo‘lgandagina” kabi bo‘glovcilar orqali tarjima qilinadi. Bu bog‘lovchi yozma uslubga xos bo‘lib, murakkab qo‘shma gaplarda payt-shartlilik munosabatini ifodalaydi. Masalan:

缔约各方彼此同意废约时，国际条约则停止生效

*Diyuē gè fāng bǐcǐ tóngyì fèi yuē shí, guójì tiáoyuē zé tíngzhī shēngxiào*

*Shartnomaga tuzuvchi tomonlar shartnomani bekor qilishga rozi bo‘lgandagina xalqaro shartnomaga o‘z kuchini yo‘qotadi [1,171]*

Yuqorida berilgan gapdan ma’lum bo‘ladiki 则 zé bog‘lovchisi murakkab qo‘shma gapning ikkinchi qismida, fe’ldan oldin qo‘llanilmoqda, ya’ni vaqt shartliligini ifodalab kelmoqda.

自 zì ko‘makchisi adabiy tilda ko‘proq qo‘llanilib, 由 yóu ko‘makchisi bilan bir xil ma’noni ifodalab keladi. Putunxuada esa 从 cóng ko‘makchisi bilan o‘xshash.

自 zì ko‘makchisi ishitorikidagi 自...起 zì ... qī “shu vaqtadan boshlab”, 自...

后 zì...hòu “o‘sha vaqtadan buyon, shu vaqtadan so‘ng”, 自 ...以来 zì...yǐlái “vaqt o‘tib, o‘sha vaqtadan beri” kabi payt ravishlari yordamida tarjima qilinadi.

双方决定自 1992 年 8 月 24 日起相互承认并建立大使级外交关系

*Shuāngfāng juédìng zì 1992 nián 8 yuè 24 rì qǐ xiānghù chéngrèn bìng jiànli dàshǐ jí wàiijiāo guānxì*

*Tomonlar 1992-yil 24-avgustdan boshlab o‘zaro bir-birlarini tan oldilar hamda elchilar darajasida diplomatik munosabatlarni o‘rnatishga qaror qildilar [1,230]*

Og‘zaki nutqda esa 从...起 cóng... qī , 从...以来 cóng ...yǐlái, 从...以后 cóng ...yǐhòu, 由...至 yóu... zhì kabi konstruiyalar qo‘llaniladi. Ammo ularni ijtimoiy-siyosiy matnlar tarkibida ham tez-tez uchratish mumkin:

从 70 年代开始，由于外国干涉，柬埔寨经历了长期的战乱

*Cóng 70 niándài kāishǐ, yóuyú wàiguó gānshè, jiǎnpǔzhài jīnglìle chángqí de zhànluàn*

*70-yillardan boshlab, chet el aralashuvi tufayli Kambodja uzoq yillik urushlarni boshdan kechirdi*

从今以后我们应该加强关系

*Cóng jīn yǐhòu wǒmen yīnggāi jiāqiáng guānxì*

*Bugundan boshlab biz munosabatlarimizni mustahkamlashimiz lozim* [3,85]

于 yú ko‘makchisi yozma nutqqa xos bo‘lib, o‘zbek tiliga “-da” o‘rin-payt kelishigi orqali tarjima qilinadi. Og‘zaki nutqda 在 zài ko‘makchisining ma’nosiga yaqin. U birikkan so‘zlar ham o‘rin-joy holini, ham payt holini yasashi mumkin. Gapda ba’zida fe’llardan oldin, ba’zida fe’llardan keyin joylashishi mumkin. Masalan:

柬埔寨是历史悠久的文明古国，于公元 1 世纪建国

*Jiǎnpǔzhài shì lìshǐ yōují de wénmíng gǔguó, yú gōngyuán 1 shìjiè jiànguó*

*Kambodja – qadimgi svilizatsiya tarixiga ega davlat bo‘lib, milodiy 1-asrda tashkil topgan*

当 … (时候) *dāng…shíhòu - …gan paytida ...; ... vaqtida* turg‘un konstruksiyasi ikki ish-harakatning qisman bir vaqtda yuz berishini bildirib, 当 *dāng* ko‘makchisi yoki ko‘makchisiz 时候 *shíhou* tipidagi maxsus leksik elementlar bilan ifodalananadi. Bunday turdag'i gaplarning ergash gapidagi kesim tugallanmagan ish-harakatni bildiradi. Bosh gapdagi kesim esa tugallangan ish-harakatni anglatadi.

当大脑皮层的机能产生障碍的时候，管理血管的神经中枢便失去控制。

*Dāng dànǎo pí céng de jīnérng chǎnshēng zhàng’ài de shíhou, guǎnlǐ xuéguǎn de shénjīng zhōng shū biàn shīqù kòngzhì.*

*Bosh miyaning katta yarim shari qobig‘i funksiyalarida qiyinchilik yuzaga kelgan paytida, qon tomirlariga olib boruvchi nerv markazi boshqaruvni yo‘qotadi.*

Yuqorida hozirgi xitoy tilidagi ijtimoiy-siyosiy matnlardagi temporativlarni o‘zbek tiliga tarjima qilinish xususiyatlarni tahlil etish jarayonida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Hozirgi xitoy tili yozma nutqda qo‘llaniluvchi temporativlar og‘zaki uslubdan biroz farqlanib, o‘zbek tiliga tarjima jarayonida turli grammatik transformatsiyalarga uchraydi. Jumladan xitoy tilidagi payt ravishlari o‘zbek tiliga ba’zi hollarda zamon yasovchi fe’l shakllari, ba’zan o‘rin-payt kelishigi, ba’zida esa payt-shartli gaplardagi bog‘lovchilar yordamida aks etadi. Xitoy tilida ijtimoiy-siyosiy matnlarda uchraydigan vaqtni ifodalovchi yordamchi so‘zlar, turli turg‘un konstruksiyalar, payt ravishlarini o‘zbek tiliga muqobil ekvivalentini to‘g‘ri tanlab olish hamda ularni to‘g‘ri tarjima qilishda talabalarga mazkur so‘zlarning har birini qo‘llanilish xususiyatlari haqida batafsil ma’lumot berish maqsadga muvofiq.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Войцехович И.В., Кондрашевский А.Ф. Китайский язык. Общественно-политический перевод. – М.: Муравей, 2002.
2. Бондарко А. В. Функциональная грамматика. Темпоральность. Модальность. Л.: Наука, 1990.
3. S.Hashimova, S.Nosirova. Xitoy tili grammatikasi. –Т.: Jahon Print, 2012.
4. S. Nosirova. Xitoy tilining ijtimoiy-siyosiy va diplomatik terminologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.
5. 朱庆明。现代汉语使用语法分析（下册）。- 北京：清华大学出版社，2005 年。
6. 天津日报. 天津日报社, 1987.11.27